Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320363

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

SANOAT TARMOG'INING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI BAHOLASH USLUBIYOTI

CHORIYEV TOLIB A'ZAMOVICH
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda sanoat tarmog'ining investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti yoritilib berilgan. Shuningdek, mazkur tarmoqning investitsion jozibadorligi baholangan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion jozibadorlik, baholash.

Sanoat tarmoqlarining barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy modernizatsiyasi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda hududiy iqtisodiy muvozanatni shakllantirish bilan belgilanadi. Global iqtisodiy muhitda raqobatning kuchayishi, kapital harakatining jadallashuvi va investitsiya resurslari uchun kurashning ortishi sharoitida sanoat tarmoqlarining investitsion jozibadorligini baholash masalasi iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Chunki, investitsion jozibadorlik darajasi tarmoqning kapital jalb qilish imkoniyati, texnologik yangilanish sur'ati, innovatsion faollik darajasi hamda uzoq muddatli raqobat ustunliklarini belgilab beruvchi kompleks iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda investitsion qarorlar qabul qilish jarayoni faqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmay, balki institusional muhit, infratuzilma rivojlanganligi, resurslardan foydalanish samaradorligi, innovatsion salohiyat, tashqi iqtisodiy integratsiya va ekologik barqarorlik omillarini ham qamrab olmoqda. Shu nuqtai nazardan, sanoat tarmoqlarining investitsion jozibadorligini baholashda an'anaviy yondashuvlarni takomillashtirish, ko'p omilli integral baholash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda tarmoq xususiyatlarini hisobga oluvchi uslubiy yondashuvlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda sanoatni jadal rivojlantirish, iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish va xususiy investitsiyalar ulushini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur masalaning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda sanoat ishlab chiqarishi hajmining o'sishi, yangi sanoat zonalarining tashkil etilishi, texnologik modernizatsiya jarayonlarining faollashuvi hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan institusional islohotlar investitsion muhitning sifat jihatdan o'zgarishiga xizmat qilmoqda. Biroq, tarmoqlar kesimida investitsiyalarning noteng taqsimlanishi, texnologik rivojlanish darajasidagi farqlar va resurslardan foydalanish samaradorligidagi tafovutlar investitsion jozibadorlikni baholashning takomillashgan uslubiyotini

Published: 05.06.2026

Cite this article: Choriyev Tolib A'zamovich (2026). Sanoat tarmog'ining investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320363

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, sanoat tarmog‘ining investitsion jozibadorligini baholash uslubiyotini takomillashtirish investitsiya resurslarini samarali yo‘naltirish, istiqbolli tarmoqlarni aniqlash, investitsion xatarlarni kamaytirish va iqtisodiy rivojlanishning barqaror trayektoriyasini shakllantirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yo‘nalishda integral indekslar, ko‘p mezonli baholash usullari, iqtisodiy-matematik yondashuvlar hamda tarmoqlararo taqqoslovchi tahlil vositalarini qo‘llash orqali investitsion qarorlar qabul qilish sifatini oshirish mumkin.

Demak, investitsion jozibadorlik murakkab iqtisodiy kategoriya bo‘lib, uni bir yoki bir necha ko‘rsatkichlar orqali ifodalab bo‘lmaydi. O‘z navbatida sanoat tarmoqlarining investitsion jozibadorligini baholashda juda ko‘plab usullar qo‘llaniladi.

Hozirgi zamon investitsiya bozori taklifga nisbatan talab yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Investorlarni jalb qilishda imtiyoz va uning yuqori darajasi kamlik qiladi. Shuning uchun investorlarda tarmoqlarning jozibadorligi, ya’ni jalb etuvchanligini ta’minlash masalasi ko‘ndalang bo‘ladi. Bunda “investitsion muhit” degan atama keng qo‘llaniladi. Atama o‘z ichiga ko‘rsatkichlarning keng doirasini oladi. Bu ko‘rsatkichlar investorga, u ishlashi va qarorlar qabul qilishi kerak bo‘ladigan sharoitlar to‘g‘risida tizimli tasavvurga ega bo‘lishga imkon beradi.

Investitsiya muhiti - juda keng ma’noda ishlatiladigan tushuncha bo‘lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammolar va masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Investor tomonidan ma’lum bir tarmoqqa investitsiya qilishning qulay va noqulay tomonlari baholanadi. Investitsiya muhiti har tomonlama, chuqur tahlil qilinishi asosida investitsiya tavakkali aniqlanadi. Investitsiya muhiti va tavakkal darajalari bir - birlariga teskari nisbatdadir.

Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo‘lsa, investorning tadbirkorlik tavakkali shunchalik past darajada bo‘ladi va bu investorlarning kirib kelishini ko‘paytiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo‘lsa, tavakkal darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa investitsiya qabul qiluvchining sarf - xarajatlarining o‘sishiga olib keladi [1].

Quyida sanoat tarmoqlarining iqtisodiy - moliyaviy rivojlanishini tavsiflovchi statistik ma’lumotlar keltirilgan.

1-jadval

Sanoat tarmoqlarining iqtisodiy - moliyaviy rivojlanishini tavsiflovchi statistik ko‘rsatkichlar

Ko‘pcatkichlar	Tarmoqning tarkibiy qismi (IFUT-2 bo‘yicha)						
	u_1	u_2	u_3	u_4	u_5	u_6	u_7
x_1 - mlrd. so‘m	233,2	301,5	137,8	202,4	401,3	288,7	352,5
x_2 - mlrd. so‘m	135,7	156,8	75,8	101,2	215,6	144,3	156,3
x_3 - ming kishi	638,1	457,5	401,7	389,6	561,3	488,2	475,4

x_4 - foiz	34,1	27,3	47,8	36,7	39,5	46,2	28,9
x_5 - ming so‘m	1221,5	1457,9	1574,3	1385,9	1287,6	1678,8	1514,1
x_6 - mln. so‘m	189,7	257,5	106,7	178,3	178,8	104,4	165,4
x_7 - foiz	34,7	35,8	43,2	45,8	39,7	43,8	42,2
x_8 - foiz	47,1	46,8	38,7	41,1	45,8	39,4	43,7
x_9 - mln. so‘m	278,9	312,5	417,8	305,4	298,7	484,4	378,5

Sanoat tarmoqlarining investitsion jozibadorligini baholashda turli xil usullar qo‘llaniladi. Jumladan, reyting baholashga asoslangan ikki xil yondashuv mavjud.

Sanoat tarmoqlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari quyidagi formula yordamida standartlashtirilgan ko‘rsatkichlarga olib kelinadi:

$$x_{ij} = a_{ij} / \max a_{ij} \quad (1)$$

Tarmoqning investitsion jozibadorlik darajalari (R_j)ni quyidagi formula yordamida aniqlanadi [2]:

$$R_j = \sqrt{(1-x_{1j})^2 + (1-x_{2j})^2 + (1-x_{3j})^2 + ... + (1-x_{nj})^2} \quad (2)$$

Barcha hisoblanishlardan so‘ng, olingan qiymatlar bo‘yicha sanoat tarmoqlarining investitsion jozibadorlik darajalari pasayib borish tartibida ranjirlanib, ularning rivojlanish o‘rni aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan uslubiyotga asosan 1-2-formulalardagi o‘zgaruvchilarning qiymatlarini hisoblaymiz. Olingan natijalar quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

2-jadval

O‘zgaruvchi parametrlarning qiymalari[262]

$\overline{C}_0 = \frac{1}{m}\sum_{i=1}^{m} C_{i0}$	$\sigma = \sqrt{\frac{1}{m}\sum_{i=1}^{m}(C_{i0} - \overline{C}_0)^2}$	$C_0 = \overline{C}_0 + 2\sigma_0$
5,64	0,86	7,36

Ushbu qiymat mashinasozlik tarmog‘ida 0.145, elektrotexnika sanoatida 0.241, dastgohsozlik va asbobsozlik sanoatida 0.058, priborsozlik sanoatida 0.124, ko‘tarma - transport mashinasozligida 0.371, traktor va qishloq xo‘jalik mashinasozligida 0.333 hamda mashina va uskunalarni ta’mirlashda esa 0.360 ga teng bo‘ladi. Bunda olingan yuqori qiymat qaralayotgan tarmoqda investitsion jozibadorlikning yuqori darajasini o‘zida ifoda etadi. Agar tarmoqning investitsion jozibadorligi yuqori bo‘lsa, u holda ushbu tarmoqda investitsiyalarni joylashtirish eng samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[262] Muallif hisob-kitoblari

1. Hamroyev H.R. Zonal siyosat: metodologiya, xorijiy tajriba va qo‘llash yo‘nalishlari. MonografiY. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. T.: 2008. - 7 b.

2. Bakanov M.I., Sheremet A.D. Teoriya ekonomicheskogo analiza: Uchebnik. - 4-ye izd., - M.: Finansi i statistika, 2001. S. 291-293.

3. https://stat.uz

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti